ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

MAKTABGACHA TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Nazarova D.E. Nizomiy nomidagi O'zMPU, "Tarix" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Tursunova G.N. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida AKTni qo'llashning samaradorlik omillari, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda ularning bolalarning bilish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanishni kengaytirish bo'yicha davlat siyosati asoslari tahlil etiladi.

Kalit so'z: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, raqamli ta'lim, innovatsion yondashuv, taraqqiyot strategiyasi, ta'lim sifati, raqamli savodxonlik, elektron resurs, multimediali ta'lim, interaktiv muhit, virtual o'quv muhiti, texnologik yondashuv.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в системе дошкольного образования. Освещены факторы эффективности применения ИКТ в образовательном процессе, инновационные педагогические подходы и их влияние на познавательные, творческие способности и навыки самостоятельного мышления детей. Также анализируются основы государственной политики по цифровизации системы образования и расширению использования ИКТ в дошкольном образовании в рамках "Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы".

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, дошкольное образование, цифровое образование, инновационный подход, стратегия развития, качество образования, цифровая грамотность, электронный ресурс, мультимедийное образование, интерактивная среда, виртуальная учебная среда, технологический подход.

THE IMPORTANCE OF THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation: This article analyzes the role and importance of the use of information and communication technologies (ICT) in the preschool education system. Factors of effectiveness of the use of ICT in the educational process, innovative pedagogical approaches, and their influence on children's cognitive, creative, and independent thinking skills are highlighted. Also, within the framework of the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026," the foundations of state policy on the digitalization of the education system and the expansion of the use of ICT in preschool education will be analyzed.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Key words: information and communication technologies, preschool education, digital education, innovative approach, development strategy, quality of education, digital literacy, electronic resource, multimedia education, interactive environment, virtual learning environment, technological approach.

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda bolalarning bilish qobiliyatlari, ijodiy fikrlashlari va muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. AKT ta’lim jarayonini interaktiv va dinamik muhitga aylantirib, bolalarning mustaqil o‘rganishiga, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida AKTdan foydalanish nafaqat pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilishga, balki ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa har bir bolaning individual o‘qish uslubi va qobiliyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada, bolalarning ma’naviy, aqliy hamda ijodiy rivojlanishiga zamin yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta’lim sohasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, unda davlat tomonidan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Konstitutsiyaning 50-moddasida har kimning ta’lim olish huquqiga egaligi qayd etilgan, maktabgacha ta’lim va tarbiya esa davlat nazorati ostida amalga oshirilishi belgilangan[1].

Mazkur yo‘nalish “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da ham o‘z ifodasini topgan. Strategiyaning IV yo‘nalishi — inson kapitalini rivojlantirish va sifatli ta’lim tizimini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarda raqamli ta’lim muhitini yaratish, barcha ta’lim bosqichlarida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida AKTdan samarali foydalanish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ta’lim sifati va qulayligini ta’minlashga alohida urg‘u berilgan.

Shuningdek, 2019 yilda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunda AKTni joriy etish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash masalalari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan[2]. Ushbu normativ-huquqiy asoslar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali raqamli avlodni shakllantirish, intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy pedagogika ilmining yirik vakillaridan biri N. Xo‘jaev ta’kidlaganidek, maktabgacha ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) samarali joriy etish pedagoglar uchun nafaqat yangi o‘qitish metodlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi, balki ta’lim jarayonini individuallashtirish, ya’ni har bir bolaning qobiliyati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi[3]. Olimning fikricha, AKT maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda bilish faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab berilgan ta’lim sohasiga oid asosiy tamoyillar bilan uzviy bog‘liqdir. Konstitutsiyaning 50-moddasida ta’lim olish huquqi kafolatlanib, davlat tomonidan ta’lim tizimini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda pedagogik

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

faoliyatni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Bu jihatlar "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ilgari surilgan "inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish" yo'nalishlari bilan hamohangdir. Mazkur strategiyada ta'lim tizimining barcha bosqichlariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, AKTni keng joriy etish va raqamli pedagogika tamoyillarini kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha ta'lim jarayonida AKTni samarali qo'llash nafaqat bolalarning bilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni innovatsion usullar bilan boyitish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim sifati" tamoyiliga muvofiq, bolalarning ijodiy fikrlash, mustaqil o'rganish va aqliy rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

N. Xo'jaevning ta'kidlashicha, AKTdan maqsadli va oqilona foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda faollik, mustaqillik va o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiya shakllanadi. Bu holat "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan barkamol, intellektual salohiyatli, raqamli tafakkurga ega avlodni tarbiyalash maqsadlariga to'liq javob beradi.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'limdagi o'rni va ahamiyati keng ko'lamda o'rganilgan. Jumladan, amerikalik olim V. Xartning ta'kidlashicha, "AKT maktabgacha yoshdagi bolalar uchun interaktiv muhit yaratish orqali ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida bolalarning diqqatini jalb etish, ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undash mumkin, bu esa ularning bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirishini rag'batlantiradi"[4]. Shuningdek, Yevropa pedagog olimlari K. Myuller va A. Smit AKTni joriy etish jarayonida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ta'lim jarayonida AKTning samaradorligini ta'minlash, avvalo, pedagoglarning axborot-kommunikatsiya ko'nikmalarini chuqur rivojlantirishga bog'liq[5].

Mazkur yondashuvlar "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan uzviy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Strategiyada ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, maktabgacha ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta'lim jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bois, xorijiy tajribada e'tirof etilganidek, pedagoglarning AKTdan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish milliy ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi.

V. Ivanovning tadqiqotlariga ko'ra, agar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, bu holat AKTning ta'lim jarayoniga ta'sirini cheklaydi[6]. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish hamda texnik-texnologik infratuzilmani mustahkamlash orqali AKTdan foydalanish samaradorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlat siyosati darajasida belgilangan mazkur vazifalar maktabgacha ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, ta'lim sifati va mazmunini zamonaviy bosqichga olib chiqish, pedagoglarning AKT sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda bolalarning bilish faoliyatida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Natijada, AKTning samarali joriy etilishi bolalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan ta’limni tashkil etish imkonini beradi va shu orqali “Yangi O‘zbekiston – raqamli avlodni tarbiyalash sari” maqsadiga xizmat qiladi.

Pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish qobiliyati ularning kasbiy rivojlanish darajasi, malaka oshirish jarayonida faol ishtiroki hamda doimiy o‘quv-amaliy faoliyatda qatnashishiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimida AKTni joriy etish jarayonida pedagoglarning malakasini oshirishni tizimli va uzluksiz ravishda amalga oshirish zarur. Bunda faqatgina pedagoglarning malakasi emas, balki ta’lim muassasalarining texnik-texnologik ta’minoti, metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi va ma’naviy-motivatsion muhit ham AKTning samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir.

Mazkur yondashuv “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan “inson kapitalini rivojlantirish va ta’lim sohasini raqamlashtirish” yo‘nalishlari bilan bevosita uyg‘unlikda. Strategiyada pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy o‘quv texnologiyalarini joriy etish, ta’lim tizimini innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan[7]. Shu jihatdan, pedagoglarning AKT bo‘yicha malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ishlashga tayyorlash va pedagogik jarayonga raqamli yondashuvni joriy etish strategik ahamiyatga ega.

Pedagoglarning AKT ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda o‘quv kurslari, seminar va treninglar tashkil etilishi, ularning innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash hamda metodik va axborot resurslar bazasini yaratish zarur. Bu jarayon Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan “raqamli ta’lim infratuzilmasini mustahkamlash” maqsadi bilan hamohang bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’limda AKT asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etishning mazmuni, pedagogik ahamiyati va amaliy yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish orqali pedagogik jarayonga yangi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari kengayadi. Milliy va xorijiy tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, AKTdan foydalanish pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda bolalarda bilish, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimini inson kapitali rivoji uchun eng muhim omil sifatida belgilanishi, AKTni samarali qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, pedagoglar malakasini doimiy takomillashtirish va ta’lim jarayonini raqamli muhitga moslashtirish zarurligini yanada dolzarb qiladi.

Natijada, AKTlarning samarali joriy etilishi maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning mustaqil fikrlash, muloqot va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda “Yangi O‘zbekiston – innovatsion ta’lim sari” konsepsiyasida belgilangan raqamli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145 (murojaat qilingan vaqt*: 15.10.2025 ŭ.)*.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni, 26.12.2019 yil.

3. Страхование жизни: зарубежный опыт и необходимост развития в Узбекистане. https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/167.

4. V.Hart. 2015. The role of ICT in early childhood education: Enhancing learning through interactive environments. Journal of Early Childhood Research, 13(2), 123-136.

5. K. Müller., A. Smith. 2017. Professional development for educators in ICT integration: Strategies and challenges. European Journal of Education, 52(4), 567-582.

6. В.Иванов. Навыки педагогов в области информатsионно-коммуникатsионных технологий и их применение в образовательном процессе. Журнал «Педагогика и инноватsии», 2019. 3(45), 58-65.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni (murojaat qilingan vaqt*: 03.11.2025 ŭ.)*.